



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING BUYRUG‘I

### QMQ 2.04.03-19 “Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” qurilish me’yorlari va qoidalarining 4.9-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-maydagi PQ–257-son “Aholining ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan **buyuraman:**

1. QMQ 2.04.03-19 “Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” shaharsozlik normalari va qoidalarining 4.9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4.9. Oqova suv quvur o‘tkazgichlarida quyidagilar qo‘llanilishi kerak:

o‘zi oqar tarmoqlarda – bosimsiz va bosimli (asoslangan hollarda) temir betonli, betonli, sopolli, cho‘yan, asbest sementli, plastmassa, bazalt kompozit quvurlar va temir betonli qismlar;

bosimli tarmoqlarda – bosimli temir betonli, asbest sementli, cho‘yan, po‘lat, plastmassa va bazalt kompozit quvurlar.

Izohlar:

o‘zi oqar tarmoqlarda cho‘yan quvurlari hamda bosimli tarmoqlarda po‘lat quvurlari yetib borish qiyin bo‘lgan joylardagi qurilishlarda, cho‘kuvchan tuproqlarda, yer sathi kon ishlaridan zarar ko‘rgan hududlarda, suv havzalarini, temir yo‘li va avtomobil yo‘llari ostidan kesib o‘tgan, xo‘jalik-ichimlik suv quvurlari bilan kesishgan va quvurlarga mexanik shikastlar yetkazilishi mumkin bo‘lgan joylarda, shuningdek quvurlar estakada tayanchlari ustidan olib o‘tilganda qo‘llanilishi mumkin;

quvurlar tajovuzkor muhitlarda yotqizilganda korroziyaga chidamli quvurlarni qo‘llash lozim;

po‘lat quvurlar qo‘llanilganda tashqi va ichki yuzalarni korroziyadan himoyalash choralari nazarda tutish lozim. Po‘lat quvurlarning tashqi yuzasini korroziyadan himoya qilish usullarini tanlashda tuproqning korrozion xususiyatlari hamda daydi toklar ta’sirida yemirilishi mumkinligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan asoslanishi kerak. Po‘lat quvurlarni tashqi korroziyadan himoyalash GOST 9.602 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Po‘lat quvurlarning ichki korroziyasini istisno qilish maqsadida ularning ichki yuzasini lok-bo‘yoq, rux va boshqa korroziyaga qarshi qoplamalar bilan himoyalashni nazarda tutish kerak;

barcha turdagi po‘lat va temir-betonli quvur o‘tkazgichlarni loyihalashda korroziyaga qarshi elektr-kimyoviy himoyasini qurish imkoniyatini yaratish uchun ushbu quvurlarni elektr-kimyoviy

o'tkazuvchanligining uzluksizligini ta'minlovchi choralar nazarda tutilishi kerak;

bazalt kompozit quvurlar GOST 33123 ga mos bo'lishi hamda ular qo'llanilganda mazkur izohlarning ikkinchi xatboshisida keltirilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim.”.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Курилиш вазири**

Тошкент ш.  
2022 йил 22 ноябрь,  
201 сон



**Zakirov B. I.**

**Вазир**

Тошкент ш.  
2022 йил 21 ноябрь,

Келишилди:



**Хидоятов Ш. С.**